


**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

***60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi  
(ipak mahsulotlari ishlab chiqarish)  
bakalavriat ta'lim yunalishining malaka talablari***

**Toshkent 2023**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil « 7 » 08 dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....</b>	<b>5</b>
1.1	Qo'llanish sohasi .....	5
1.1.1	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	5
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	5
1.2	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	5
1.2.1	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	6
1.2.2	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari..	6
1.2.3	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	7
<b>2.</b>	<b>60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>

2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	9
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	11
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i> .....	12
2.3.2.	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	12
2.3.3	60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	12
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>13</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>15</b>

## **1. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishining tavsifi**

60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshka manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta’lim yo‘nalishi** – “Ishlab chiqarish va ishlov berish” ta’lim sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, Pillalarga dastlabki ishlov berish korxonalarini xom ashyosini qabul qilish va saqlash, xom ipak, yigrilgan ipak, eshilgan ipak ishlab chiqarish texnologik jihozlarini boshqarish, yordamchi materiallar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- davlat boshqaruv organlari, o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish;

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- mehnatni tashkil etish, mehnat bozorini rivojlantirish va tartibga solish hamda aholi bandligini ta’minlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni moddiy rag‘batlantirish va muhofaza qilish jarayonlari.

*60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriyatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.*

**1.2.3. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *loyihaviy–konstruktorklik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

#### **1.2.4. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- respublika va xorijda chop etilgan to'qimachilik va yengil sanoati texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- yigirish sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.
- ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha namunaviy texnologiyalarni tashkil etish;
- ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;
- amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;
- zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;
- ipakchilik va to'qimachilik sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnika xavfsizligi qonunlariga amal qilish va tabiiy resurslardan unumli foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

##### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ip yigirish sanoatida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;
- ipakchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

#### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

- xom ashyo va mahsulotlarning tuzilishi, fizik-mexanik va kimyoviy xossalari, mahsulotlarning texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlari, moddiy balans, ishlab chiqarish rejimlari va normalari, ishlab chiqarishning asosiy (texnologik) va yordamchi jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyhasini tuzishni amalga oshira olishi;
- ipak texnologiyasi bo‘yicha boshlang‘ich ma‘lumotlarni tayyorlash;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma‘lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatini turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.



## **2. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan javobgar bo'lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- muhandislik fizikasi doir uslublar, uning texnikaga oid boshqa fanlar bilan o'zaro bog'likligi, o'rni, mexanika va uning ahamiyati, optika va texnologik uskunalardagi optik qurilmalar, issiqlik texnikasi va uning texnologik uskunalarda qo'llanishi, elektr tizimlari va ularni qo'llanishi, fotonika va uning ahamiyatini;
- axborot texnologiyalarining texnik tizimlardagi vazifalari, yo'nalishlari va uslublari, texnik tizimlarda ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish usullari, axborot texnologiyalarining zamonaviy texnik vositalari, ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari;
- muhandislik va kompyuter grafikasining yo'nalishlari va uslublari, geometrik shakllarni analiz va sintez qilish, uch o'lchamli jismlarni tekislikdagi proyeksiyalarini qurish, geometrik modellashtirish usullarini o'rganish, kompyuterda modellashtirish usullarini;

- metrologiya va standartlashtirish yo'nalishlari va uslublari, texnologik jarayonlarning omillarini o'lchashda metrologik ta'minot, o'lchash vositalarini ko'rikdan o'tkazish, omillarni o'lchash usullari va uskunalari, standartlarning turlari, standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini;

- isqtisodiyoti va menejmenti yuzasidan korxonalar faoliyatini rejalashtirish, moddiy va moliyaviy resurslarni qidirish, korxonalar faoliyatini boshqarish va ijroni nazorat qilishni;

- sanoat ekologiyasi borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhit ifloslanishini oldini olish, chiqindilarni tozalash, ekologik toza manbaalardan foydalanishni;

- hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha hayot uchun xavfli bo'lgan manbaalarni aniqlash, xavfning oldini olish va undan himoyalash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda bajariladigan ishlarni rejalashtirish va sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda qutqaruv tadbirlarini amalga oshirish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavflardan saqlashni;

- nazariy mexanikaning, vazifalari, yo'nalishlari va uslublari, statika, statikaning aksiomalari, jism muvozanati shartlari, kinematika, asosiy tushunchalar, harakatning kinematik xarakteristikalarini, dinamika, dinamikaning aksiomalari, harakat turlarini;

- amaliy mexanika bo'yicha mashina va mexanizmlar nazariyasi, asosiy tushunchalar, kinematik juftlikning erkinlik darajasi, mexanizmlarning kinematik tahlili, mashinalarning dinamik tahlili, materiallar qarshiligining asosiy tushunchalari, real konstruktsiya va uning hisoblash chizmasi, ta'sir etayotgan kuchlar va tayanch reaksiyalari, mashina detallari, asosiy tushunchalar, zamonaviy mashinalarga qo'yiladigan talablar, mashina detallariga ta'sir etayotgan kuchlar, mashina detallarini loyihalash bosqichlari;

- elektrotexnika va elektronikaning yo'nalishlari va uslublari, elektrotexnik qurilmalarning turlari, chiziqli o'zgaruvchan tok zanjirlari, sinusoidal o'zgaruvchan elektr toki zanjirlari, uch fazali elektr zanjirlari, elektr mashinalari va apparatlari, elektron qurilmalar, diskret qurilmalarni;

- tabiiy tolalarni dastlabki ishlashning ahamiyati, tabiiy tola turlari va ularning qo'llanishi, paxta, jun va kanop tolalarini dastlabki ishlash texnologiyasi va uskunalarini;

- to'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlarida ipak mahsulotlari, yigirilgan ip, trikotaj mahsulotlari, noto'qima mahsulotlari, to'qima va gilam mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va uskunalar ketme-ketligi, jarayonlarning texnologik omillarini o'rnatish va sozlash usullarini;

- to'qimachilik materialshunosligi yuzasidan to'qimachilik tolalarining turlari, tabiiy va kimyoviy tolalar, ularning tarkibi va tuzilishi, to'qimachilik

mahsulotlarining turlari, ipak, yigirilgan ip, noto‘qima materiallar, trikotaj va to‘qimalarning tuzilishi, ularning xususiyatlari, to‘qimachilik mahsulotlarini sinash usullari.

- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish fanining maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari va uslublari, obykti va predmeti; ishlab chiqarish turlari va shakllari, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bosqichlari, texnologik jarayonlarning omillari va ularni avtomatik nazorat qilish, avtomatik nazorat qilish jarayoning asosiy qurilma va elementlari to‘g‘risida nazariy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

- malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya: texnolog, muhandis**

**2.3.2. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

<b>O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari</b>	<b>Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat</b>	<b>Ajratilgan kredit</b>
Majburiy fanlar	4380	146
Tanlov fanlar	1770	59
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

**2.3.3. 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim dasturishshg tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4380</b>	<b>146</b>	
1.01	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	XT11209	Xorijiy till,2	270	9	1,2
1.03	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.04	FAL1404	Falsafa	120	4	4
1.05	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.06	OM11210	Oliy matematika1,2	300	10	1,2
1.07	MFIZ11210	Muhandislik fizikasi1,2	300	10	1,2
1.08	KIM1205	Kimyo	150	5	2
1.09	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.10	MKG11212	Muhandislik va kompyuter grafikasi1,2	360	12	1,2
1.11	MS1505	Metrologiya va standartlashtirish	150	5	5
1.12	SIM1705	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	150	5	7
1.13	EKA1604	Sanoat ekologiyasi	120	4	6
1.14	HFX1705	Hayot faoliyati havfsizligi	150	5	7
1.15	NM1305	Nazariy mexanika	150	5	3
1.16	AMEX14509	Amaliy mexanika1,2	270	9	4,5
1.17	ETE2405	Elektrotexnika va elektronika	150	5	4
1.18	TTD11305	Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash	150	5	3
1.19	TMTJ13456725	To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari1,2,3,4,5	750	25	3,4,5,6,7
1.20	TM1306	To'qimachilik materialshunosligi	180	6	3
1.21	TJA1604	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish	120	4	6
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1770</b>	<b>59</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1770	59	3,4,5,6,7
		<b>Jami:</b>	<b>6150</b>	<b>205</b>	
		Malakaviy amaliyot	600	20	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		<b>Jami:</b>	1050	35	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, to'qimachilik mahsulotlari, to'qimachilik sanoati texnologiyasi, ipak texnologiyasi, yigirish texnologiyasi, trikotaj texnologiyasi, noto'qima materiallar texnologiyasi, gilam ishlab chiqarish texnologiyasi, to'quvchilik texnologiyasi, halqali yigirish mashinalari, yigirilgan ip, tanda ipi, arqoq ipi, pishirilgan ip, melanj ip, shakldor ip, urchuq, kalava, notekislik, titish tozalash, aralashtirish, tarash, taram, garnitura, piltalash, cho'zish, piliklash, yigirish, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Rektor  prof. S.M. Turabdjano

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Rektor  D.Vaxabov

2023 yil « 15 » 07

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy  
ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish  
markazi

Direktor  SH. Yakubov

2023 yil « 7 » 08

M.O'.

Jizzax politexnika instituti

Rektor  A. Usmonkulov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

"O'zbekipaksanoat" uyushma  
Boshqarma boshlig'i

 A. Kuchkorov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

"Toshkent silk Pro" MCHJ direktori

 A.T. Urakov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.



**Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti**  
**60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi**  
**(ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari**  
**va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va**  
**asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**  
**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ 15 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti rektori D.Vaxabov, Jizzax politexnika instituti rektori A.Usmonkulovlar birgalikda TTYESIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori**

**S.M.Turabdjanov**

**Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti rektori**

**D.Vaxabov**

**Jizzax politexnika instituti rektori**

**A.Usmonkulov**

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini



amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Jizzax politexnika  
instituti rektori**



**A.Usmonkulov**

**Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-53-son Farmoni qoidalari va tamoyillariga amal qilingan.

60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta‘lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta‘minlangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste‘molchilari bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (ipak mahsulotlari ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini oliy ta‘lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**“Toshkent silk Pro” MCHJ direktori**



**A.T. Urakov**